BRONXIAL ASTMA BILAN KASALLANGAN BEMORLARGA TIBBIY PROFILAKTIK YORDAM KO'RSATISHDA HAMSHIRALARNING ROLINI TAKOMILLASHTIRISH

Alikulova D.Ya.
Toshkent tibbiyot universiteti. (Toshkent, O'zbekiston)

Kirish. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda rivojlanish darajasidan qatьiy nazar barcha mamlakatlar uchun bronxial astma (BA) kasalligi jamoat sog'ligini saqlash muammosiga aylanib ulgurgan. Bronxial astma kasalligi zamonaviy tibbiyotning global tibbiy - ijtimoiy muammolaridan sanaladi hamda bronxial astma turli yoshdagi millionlab odamlarning hayot sifatini yomonlashuviga va nogironlikka olib kelmoqda. Shuningdek, eng dolzarb tomoni shundaki, bemorlar tomonidan bronxial astmaning nazorat qilinmasligining sabablari bugungi kunga qadar to'liq o'rganilmagan. Jumladan, kech to'g'ri tashxis qo'yish, bemorlarda bronxial astma kasalligi haqida tibbiy ma'lumotlarning yetishmasligi, BA ni nazorat qilishda birlamchi zvenoning roli cheklab o'tilganligi, qolaversa, bronxial astmaning profilaktikasida birlamchi bo'g'in amaliyotidagi hamshiralar faoliyati deyarli ko'zda tutilmagan. Undan tashqari, statsionar va birlamchi zveno o'rtasida uzviylik negizida ish faoliyati yuzaga kelmaganligidir.

Tadqiqot maqsadi. Bronxial astma bilan og'rigan bemorlarning hayot sifati ko'rsatkichini yaxshilashda astma maktablari faoliyatini o'rganish hamda birlamchi tibbiy-sanitariya yordam ko'rsatish (BTSYo) muassasalarida ularga ko'rsatilayotgan tibbiy-profilaktik yordamda hamshiralarning rolini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'lgan.

Materiallar va usullar. Tibbiy - ijtimoiy, funktsional, dalillarga asoslangan tibbiyotning tasodifiy tanlov usullari (klaster, stratifikatsiya), epidemiologik, ijtimoiy - gigienik, statistik, ekspert baholash usullar.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotimizda BA bilan kasallangan bemorlarning sog'ligini nazorat qilishda hamshiralarning rolini baholash uchun ishlab chiqilgan maxsus savolnoma orqali so'rovnoma o'tkazildi. Tadqiqotga jalb qilingan respondentlarning 68,5% patronaj hamshirasi, 30,0% umumiy amaliyot hamshirasi, 1,5% muolaja xonasi hamshiralarini tashkil qilgan. Hamshiralar ish staji bo'yicha taqsimlanganda, 5-10 yillik tajribaga ega hamshiralar yetakchilik qilgan (45,0%), 10 yildan ko'p ishlovchilar esa 38,0%, 3 yildan 5 yilgacha stajga ega bo'lganlar 11,0%, bir yildan kam bo'lganlar 6,0% tashkil qilgan. Tadqiqotga jalb qilingan tibbiyot hamshiralari malaka toifasiga ko'ra taqsimlanganda, 30,0% oliy toifaga ega, RIIAM dagi tibbiyot hamshiralarining 10,0% toifaga ega emas. Hududlarda astma maktablarini tashkil etish bemorlarni kasallikni nazorat qilishida muhim maskan hisoblanadi. Shu bois, hamshiralarga "OP, OShPlarda astma maktabini tashkil etish kerakmi?" degan savolga quyidagicha javob olindi: RIIAM hamshiralari 100,0%, Toshkent shahar hamshiralari 85,0% va Sirdaryo viloyati hamshiralari 60,0% «ha, albatta tashkil etish kerak» degan javobni berishgan bo'lsa, Toshkent shahri 15% hamshiralar «yo'q shart emas» deb javob berishgan va bu 15% hamshiralar astma maktablari faoliyati to'g'risida bilimlari yetarli emasligidan dalolat beradi. Hamshiralik jarayoni zamonaviy hamshiralik ishi modelining asosiy va ajralmas tushunchalaridan hisoblanadi. Hozirgi vaqtda hamshiralik jarayoni orqali hamshiralik yondashuvining ilmiy asosini ishlab chiqish, hamshiralik ta'limi va amaliyotining o'zagi hisoblanadi, u tibbiyot hamshirasining sistematik ketma - ketlikda amalga oshiradigan kasbiy parvarishidir. BA xurujlarida birinchi yordam ko'rsatish hamshiraning kasbiy mahorati va bilimini baholab beradi. "BA xurujida birinchi yordam ko'rsata olasizmi?" degan savolga RIIAM 98,%, Toshkent shahri 30,0% hamshiralari «ha, yordam ko'rsata olaman» degan javobni belgilashgan.

Xulosa. Hamshiralar uchun «Bronxial astma kasalligi asoratlarini oldini olishda hamshiralik yondashuvini olib borish mavzusida seminarlar tashkil etish yordamida

ambulatoriya sharoitida bronxial astma bilan og'rigan bemorlarni shifokor qabuligacha nafas siqish darajasini aniqlash va kundalikka qayd etish, astma nazorat testini (AST) o'tkazish va uni baholash algoritmi, hamda BA asoratlarini oldini olish uchun hamshiralik yondashuvi texnikasini o'rgatish orqali BA asoratlarini oldini olishda hamshiralar rolini takomillashtirish mumkin.

Заявка на участие в конференции

1	**ФИО (полностью)**	Аликулова Дилрабо Якшибаевна
2	Ученая степень, ученое звание	доктор философии (Ph.D.) по медицинским наукам
3	Должность	Старший преподаватель
4	Место работы, адрес	Ташкентский медицинский университет, кафедра аллергологии, клинической иммунологии и сестринского дела
5	Название научной работы	Bronxial astma bilan kasallangan bemorlarga tibbiy profilaktik yordam ko'rsatishda hamshiralarning rolini takomillashtirish
6	Форма участия (устный доклад с публикацией или публикация)	публикация
7	Форма участия (офлайн/онлайн)	онлайн
8	Контактный телефон	+99891 2082424
9	E-mail	Dilrabo77.77@inbox.ru